



## XALQ DEPUTATLARI RISHTON TUMAN KENGASHI

# Q A R O R I

2022 - yil 15 - iyun

VI-38-65-11-158-K/22

Rishton tumani hokimligi

### **Rishton tuman hududidagi shaharchalarning ma'muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 299-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda tuman hokimining 2021 yil 28-dekabr kungi 92-11-1588-F/21-sonli farmoyishiga asosan Respublika Aeroqodeziya markazi Farg'ona hududlararo bo'linmasi tomonidan Farg'ona viloyati Rishton tumani hududidagi shaharchalarning ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniga ko'ra tumandagi shaharchalarning umumiy perimetri 103205 metr, tuman umumiy maydoni 2711,50 gektar: jumladan:

Saxovat shaharchasining umumiy perimetri 6880 metr ekanligi, umumiy maydoni 163,94 gektar.

Beshkapa shaharchasining umumiy perimetri 7068 metr ekanligi, umumiy maydoni 184,7 gektar.

O'yrat shaharchasining umumiy perimetri 4768 metr ekanligi, umumiy maydoni 90,09 gektar.

Bo'ston shaharchasining umumiy perimetri 6892 metr ekanligi, umumiy maydoni 194,67 gektar.

Bo'jay shaharchasining umumiy perimetri 9823 metr ekanligi, umumiy maydoni 258,79 gektar.

Pandigon shaharchasining umumiy perimetri 5207 metr ekanligi, umumiy maydoni 97,84 gektar.

Oq'er shaharchasining umumiy perimetri 5860 metr ekanligi, umumiy maydoni 158,2 gektar.

Zoxidon shaharchasining umumiy perimetri 11836 metr ekanligi, umumiy maydoni 439,42 gektar.

Avazboy shaharchasining umumiy perimetri 14344 metr ekanligi, umumiy maydoni 314,27 gektar.

To'da shaharchasining umumiy perimetri 7916 metr ekanligi, umumiy maydoni 247,27 gektar.

Xurramobod shaharchasining umumiy perimetri 7634 metr ekanligi, umumiy maydoni 148,09 gektar.

Dutir shaharchasining umumiy perimetri 7777 metr ekanligi, umumiy maydoni 249,84 gektar.

Qayrag'och shaharchasining umumiy perimetri 7200 metr ekanligi, umumiy maydoni 164,38 gektar ekanligi aniqlangan.

Yuqoridagilarni va masala yuzasidan deputatlar tomonidan bildirilgan fikr va mulohazalarni hamda takliflarni inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat xokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 6, 24 moddalariga asosan xalq deputatlari Rishton tuman Kengashi

### **QARORQILADI :**

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi "Ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 299-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Davlat kadastrlar Palatasi Farg'ona viloyati boshqarmasi Rishton tuman filiali rahbari B.Dadajonovning Rishton tumani xududidagi shaharchalarning ma'muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash to'g'risidagi Axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Respublika aerogeodeziya markazi Farg'ona hududlararo bo'linmasi tomonidan Farg'ona viloyati Rishton tumani hududidagi ma'muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash bo'yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko'rib chiqish yuzasidan ishchi guruhining yig'ilish bayoni va "Tumanning ma'muriy-xududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurlarini xatlovdan utkazish natijalari

asosida mavjud elektron raqamli qishloq xujalik xaritalarini yangilash ishlarini yakuniy natijalari to'g'risida" gi Ma'lumot 1-ilovaga asosan ma'qullansin.

3.Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari A.Dehqonovga, Xalq deputatlari tuman kengashining ushbu Qarori "Rishton haqiqati" gazetasida hamda tuman hokimligining internetidagi rasmiy veb-saytida chop etish vazifasi yuklatilsin.

4.Ushbu qarorning tasdig'i Xalq deputatlari Farg'ona viloyat Kengashidan so'ralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish taaluqligicha xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

**Туман хокими**



**С.Солиев**